



**MAKTAB O'QUVCHILARI TOMONIDAN SODIR
ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLAR TUSHUNCHASI VA
UNING HUQUQIY TASNIFI**

Jurayev Jasur Maxsutovich

*Jamoat xavfsizligi universiteti
magistritura tinglovchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab yoshidagi o'quvchilarning huquqbuzarliklari — zamonaviy ta'lim muhitida, ijtimoiy va psixologik kontekstda jiddiy masala hisoblanadi. Ushbu maqolaning annotatsiyaga bir nechta asosiy jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi: tushunchaning huquqiy jihatdan aniqligi, maktab yoshidagi o'quvchi subekti sifatidagi xususiyatlari, huquqiy tasnif (ya'ni turli shakllari), shuningdek pedagogik va ijtimoiy ahamiyati yoritildi. Maqolada shuningdek maktab yoshidagi o'quvchilar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarlik — bu huquqiy norma tomonidan taqiqlangan yoki majburiy harakatni ta'minlash majburiyatiga zid xatti-harakat yoki harakasizlik bo'lib, uni maktab yoshidagi shaxs amalga oshirgan va bunda yoshga xos ijtimoiy-psixologik sharoitlar rol o'ynagan. Ushbu holat huquqiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatni anglatishi, maktab yoshidagi o'quvchilarning huquqbuzarliklari yoshga bog'liq ijtimoiy-psixologik omillar bilan chambarchas bog'liqligi. Bu yosh davri psixologik jihatdan o'zgaruvchanlik, hamkasblarning ta'siri, maktab va oilaviy muhitning ta'siri bilan ajralib turishliklari hamda maktab o'quvchilari tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarni kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, maktab yoshidagi o'quvchilar, ijtimoiy-psixologik omillar, ta'lim muhiti, huquqiy javobgarlik, pedagogik ahamiyati, huquqiy tasnifi, yoshga xos xatti-harakatlar, oila ta'siri, huquqbuzarlikni oldini olish.



Аннотация. В данной статье рассматриваются правонарушения школьников как актуальная проблема в современной образовательной среде в социальном и психологическом контексте. Аннотация отражает несколько ключевых аспектов статьи: правовое определение понятия, особенности школьника как субъекта, юридическая классификация (различные формы), а также педагогическое и социальное значение. В статье также отмечается, что правонарушение, совершаемое школьником, представляет собой действие или бездействие, запрещённое правовой нормой или противоречащее обязанностям, выполнение которых обязательно; при этом учитываются социально-психологические особенности возраста школьника. Данное явление подразумевает действия, за которые возможна юридическая ответственность, и тесно связано с возрастными социально-психологическими факторами. Период школьного возраста характеризуется психологической изменчивостью, влиянием сверстников, воздействием школьной и семейной среды. Также разработаны предложения и рекомендации по снижению уровня правонарушений, совершаемых школьниками.

Ключевые слова: правонарушение, школьники, социально-психологические факторы, образовательная среда, юридическая ответственность, педагогическое значение, юридическая классификация, возрастные особенности поведения, влияние семьи, профилактика правонарушений

Annotation. This article addresses juvenile delinquency among school-aged students, which remains a serious issue in the modern educational environment, within social and psychological contexts. The annotation highlights several key aspects of the article: the legal definition of the concept, characteristics of school-aged students as subjects, legal classification (i.e., various forms), as well as its pedagogical and social significance. The article also notes that delinquent behavior among school-aged students refers to actions or inactions prohibited by legal norms or contrary to the obligations imposed by them, carried out by a school-aged



individual, with age-specific social and psychological conditions playing a significant role. Such behavior implies actions that may entail legal responsibility and is closely related to age-dependent social-psychological factors. This period of life is characterized by psychological variability, peer influence, and the impact of the school and family environment. The article further provides recommendations and proposals aimed at reducing delinquent behaviors among school students.

Keywords: *delinquency, school-aged students, social-psychological factors, educational environment, legal responsibility, pedagogical significance, legal classification, age-specific behaviors, family influence, delinquency prevention.*

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodning tarbiyasi, huquqiy ongi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar o'rtasida kuzatilayotgan intizom buzilishi, bezorilik, mulkka zarar yetkazish, maktab ichidagi zo'ravonlik, internet orqali sodir etilayotgan noqonuniy xatti-harakatlar kabi huquqbuzarliklarning ko'payib borishi ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda¹. Mutaxassislar fikriga ko'ra, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning ortishiga oilaviy muhit, ta'lim jarayonidagi kamchiliklar, psixologik omillar hamda axborot makonining cheksizligi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda².

O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati doirasida voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish, ularning huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Prezident qarorlari va hukumat dasturlarida maktablarda profilaktika ishlarini kuchaytirish, psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, o'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar belgilab berilgan³. Bu esa mavzuni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim tadqiqot yo'nalishiga aylantiradi. Maktab

¹ Jo'rayev N. *Huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Yuridik adabiyot, 2021.

² Qodirova G. *Yoshlar psixologiyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar masalalari bo'yicha qarorlari (2020–2024).



o'quvchilari tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarni o'rganish ularning turlari, sabablari, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash va samarali profilaktika strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi. Mavzuning o'rganilishi yosh avlodda huquqiy madaniyatni shakllantirish, maktab muhitida sog'lom psixologik atmosfera yaratish hamda jamiyat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi⁴. Shu bois mazkur mavzuning ilmiy tadqiqi voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning kelib chiqish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, ularning huquqiy tasnifini belgilash hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab o'quvchilari tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarni o'rganish bugungi kunda nafaqat huquqshunoslar, balki pedagoglar, psixologlar va jamiyatshunoslar uchun ham muhim ilmiy-amaliy vazifaga aylangan. Chunki voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va huquqbuzarligi jamiyat xavfsizligi, ta'lim-tarbiya jarayoni, oilaviy muhit barqarorligi hamda yosh avlodning ma'naviy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, so'nggi yillarda yoshlar o'rtasida intizom buzilishi, mayda bezorilik, maktab ichida zo'ravonlik (bullying), internet orqali noqonuniy xatti-harakatlar holatlarining ortishi kuzatilmoqda. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, bunday holatlarning aksariyati oila va maktab o'rtasidagi tarbiyaviy aloqaning yetarli bo'lmasligi, psixologik nazoratning sustligi va mediatexnologiyalarning cheksiz ta'siri bilan bog'liqdir⁴.

Ikkinchidan, O'zbekiston hukumati tomonidan yoshlar tarbiyasi, huquqiy madaniyatni oshirish, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Prezident qarorlarida maktab o'quvchilari bilan tizimli ishlash mexanizmlarini kuchaytirish, huquqbuzarliklarning erta profilaktikasini yo'lga qo'yish alohida vazifa sifatida belgilangan⁵. Bu esa mavzuning nazariy emas, balki amaliy dolzarbligini keskin oshiradi.

⁴ Jo'rayev N. *Huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Yuridik adabiyot, 2021.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari (2020–2024).



Uchinidan, maktab yoshidagi bolalar psixologik jihatdan barqaror bo‘lmagan toifaga mansub bo‘lgani uchun, ularda sodir etiladigan huquqbuzarliklar **kelajakda jinoyatchilikning shakllanishi uchun asos bo‘lib qolishi** mumkin. Shu bois voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi, qadriyatlari va xulq-atvori shakllanish bosqichida ularning salbiy xatti-harakatlarini o‘rganish va oldini olish ilmiy jihatdan ham, ijtimoiy jihatdan ham zarur⁶.

To‘rtinchidan, maktab o‘quvchilari sodir etadigan huquqbuzarliklarning turlari, sabablari, psixologik omillari yetarlicha o‘rganilsa, maktab va oilalarda **samarali profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish** imkoniyati yaratiladi. Bu esa yoshlar orasida huquqbuzarliklar ko‘lamini kamaytirishga xizmat qiladi⁷.

Shu sababli, mazkur mavzuni o‘rganish:

- jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish,
- voyaga yetmaganlar xavfsizligini ta‘minlash,
- ta‘lim-tarbiya tizimida islohotlarni takomillashtirish,
- davlatning yoshlar siyosati samaradorligini oshirish

uchun eng muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biridir.

Voyaga yetmagan shaxs deganda, jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga to‘lgan, ammo 18 yoshga to‘lmagan shaxs tushuniladi. Umumiy qoidaga muvofiq, 16 yoshga to‘lgan, aqli raso shaxslar jinoyat sub'ekti yoshiga yetgan hisoblanadilar. Ba'zi jinoyatlar uchun sub'ekt yoshi 14 yosh qilib belgilangan. Javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirganlik jinoyati uchun sub'ekt yoshi 13 yosh etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi oltinchi bo‘limi XV-XVI boblarida **“Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari”** belgilangan. Bu boblarda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo tizimi, jazo tayinlash qoidalari, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish hollari aks ettirilgan. Unda ko‘rsatilgan normalar jinoiy javobgarlikning umumiy qoidalarini o‘z ichiga olishi bilan birga, kodeksning 7-moddasida ko‘rsatilgan insonparvarlik printsipiga muvofiq, voyaga

⁶ Qodirova G. *Yoshlar psixologiyasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

⁷ Karimov A. *Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi va uning oldini olishning ijtimoiy-huquqiy asoslari*. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.



yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilganda ularga nisbatan jazo turlarining ancha takomillashganligi, sud ularga jazo tayinlashda o'smirning ruhiy rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'ligini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagi kishilar va vaziyatning jinoyat sodir etilishidagi o'rnini e'tiborga olib, javobgarlik yoki jazodan ozod qilishda unga nisbatan davlat tomonidan beriladigan bir qancha engilliklarda ifodalangan⁸. Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javogarlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 sentyabdagi **“Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida”**gi 360-sonli qarorida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqiy-tarbiyaviy ishlar susaytirib yuborilganligi, ular ustidan bo'lgan nazoratning bo'shligi, ish bilan ta'minlash va boshqa muammolar qoniqarli darajada hal etilmayotganligi oqibatida ko'plab yoshlar tomonidan huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etish, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, diniy aqidaparastlik yoki turli zararli oqimlar, guruhlar ta'siriga tushib qolish kabi salbiy holatlar uchrayib turganligi haqida to'xtalib o'tilgan⁹. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi umumiy jinoyatchilikning ajralmas qismidir shu bilan birga **V.D.Malikov aytganidek** *“Voyaga yetmaganlarning somotik aqliy va ahloqiy rivojlanish xususiyatlari”*, shuningdek, ularning ijtimoiy yetukligi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bu bizni uni kriminologik o'rganishning mustaqil obyekti sifatida o'rganishimizni ta'qozo etadi. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi va shu bilan birga jinoyatchiligini tahlil qilish, uning oldini olish, umuman jamiyatda mavjud jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy bo'g'inini tashkil etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 50-60 foiz resivdistlar o'zlarining “jinoiy karera”sini voyaga yetmagan, hali o'smirlik vaqtidanoq boshlashadi¹⁰. Shuning uchun, qancha erta voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi va ularning g'ayri ijtimoiy yo'lga qadam qo'yganligini aniqlash, ularning oldini olish bu, davlatning ijtimoiy-huquqiy siyosati istiqbolida samarali bo'lishini kafolatlaydi. Voyaga

⁸ Jinoyat protsessi. Maxsus kism. / Z.F.Inogomjonovanning umumiy taxriri ostida. –T.: TDYuI, 2003. – 320

⁹ Vazirlar Mahkamasining “Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya faoliyatini takomillashtirish haqida” 2000 y. 21-sentyabrda 360 sonli qarori 23-band.

¹⁰



yetmaganlar huquqbuzarligi masalasiga to'xtalishidan oldin voyaga yetmagan kim? Ular qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi, xalqaro va milliy qonunchilikda ularning huquqiy maqomi kabi masalalarga e'tibor qaratish lozim. Bugungi kunda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi, xususan jinoyatchiligi qanday o'ziga xos xususiyatlar kasb etib borayotganligin bilish ham muhim. Kriminologlar, voyaga yetmaganlar mahkumlarning umumiy soni foizidan kelib chiqib, turli xil tibbiy ro'yxatlarda (alkogolizm, giyohvandlik, ruhiy kasalliklar va hokazolar.) turadiganlar o'rtasida barqaror bog'liqlik borligini aniqlashdi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi bilan oila va oilaviy munosabatlar o'rtasida yaqin bog'liqlik kuzatilmoqda, nizoli muhitda bo'lgan oilalar, ajrashishlar ko'p bo'lgan hududlarda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, bu kabi xususiyatga ega bo'lmagan hududlarda ushbu ko'rsatkich pastligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotning ustuvor maqsadi voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi ijtimoiy-huquqiy nazorat amaliyotini takomillashtirish, voyaga yetmagan tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarga odilona javobgarlikni qo'llash hamda ular tomonidan jinoyatlarni sodir etishini oldini olish yuzasidan profilaktika faoliyatining turli darajalarida uni belgilovchi omillar va shart-sharoitlarga ta'sir ko'rsatish samaradorligini takomillashtirish mohiyatidan kelib chiqadigan muammolar majmuasini o'rganish va ko'rib chiqishdan iborat.

O'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan faoliyat huquqbuzarlik sodir etish xavfi ostidagi voyaga yetmagan shaxslarni har tomonlama o'rganish va amaliy yordam ko'rsatishga imkon beradi. 2010-yil 29 sentabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 2-bob 8-moddasiga ko'ra "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

- Bolalar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar;
- Ichki ishlar organlari;
- Ta'limni boshqarish organlari va ta'lim organlari;



- Vasiylik va homiylik organlari;
- Sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari;
- Mehnat organlari, deb belgilangan¹¹. Umumta'lim maktablarida profilaktika ishining vazifalari quyidagilardir:

- Bolaning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish;
- Voyaga yetmaganlarning qarovsizligini oldini olish;
- Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va singdirish;
- Ijtimoiy, psixologik va shaxsiy xarakterdagi muammolar va qiyinchiliklarni hal qilishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish.

Umumta'lim maktablarida huquqbuzarlik profilaktikasi tadbirlari ikki shaklda amalga oshiriladi: **umumiy** (jamoaviy) profilaktika, **yakka** tartibdagi profilaktika. Umumiy (jamoaviy) profilaktika -bu o'quvchilarning umumiy jamoasiga qaratilgan, huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, o'quvchilarning huquqiy ongini o'stirib, qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar majmuidir. Umumiy profilaktika tadbirlari doirasida har payshanba umumta'lim maktablarida "profilaktika kuni" o'tkazilishi va bu kunda maktab miqiyosida ommaviy tarbiyaviy profilaktik ishlarga o'quvchilarning katta qismi jalb qilinishi belgilangan. Jumladan, "O'quvchilar davomati va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish" davra suhbat, "Internetning salbiy ko'rinishlari-yoshlar tarbiyasiga ta'siri" tadbirlari, "Jinoyatchilikning ildizlari" suhbat, "Yoshlar va qonun" mavzusida yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish borasidagi tadbirlar, "Jaholatga qarshi kurash" mavzusida debat, "Bola tarbiyasiz tug'iladimi?" mavzusida suhbat, "Ta'tilni jinoyatlarsiz o'tkazamiz" shiori ostida tadbirlar majmui va boshqa ko'plab tadbirlar shular qatoridandir. Ushbu tadbirlar mahalla faollari, profilaktika inspektorlari, diniy tashkilot vakillari, yoshlar yetakchisi va boshqalar ishtirokida tashkil etiladi. Bu orqali voyaga yetmaganlar

¹¹ 2010-yil 29 sentabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonun



ya'ni maktab o'quvchilari ongida har qanday huquqbuzarliklarga murosasiz madaniyatni shakllantirish mumkin. Yakka tartibdagi profilaktika ishi - ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyatdir¹². Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, empirik materiallarni va statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, kuzatish, tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan.

XULOSA

Maktab o'quvchilari tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar masalasi bugungi globallashuv sharoitida davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri sifatida dolzarblik kasb etmoqda. So'nggi yillarda voyaga yetmaganlar o'rtasida intizom buzilishi, bezorilik, maktab ichidagi zo'ravonlik, axborot texnologiyalaridan noto'g'ri foydalanish kabi salbiy holatlarning ko'payishi mazkur sohaga kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining ortishiga oiladagi tarbiyaviy muhit, maktabdagi nazoratning sustligi, psixologik bosimlar, axborot makonining cheksizligi, ijtimoiy tengsizlik kabi omillar sezilarli ta'sir qilayotgani tadqiqotlar orqali isbotlangan. Shu boisdan davlat siyosatida yoshlar tarbiyasi, ularning huquqiy savodxonligi va ijtimoiy mas'uliyatini oshirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan bo'lib, maktablarda profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish, psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish hamda huquqbuzarliklarning erta oldini olish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Voyaga yetmaganlarga oid javobgarlikning milliy va xalqaro huquqiy tamoyillarga asoslangan holda alohida tartibda belgilanganligi, Jinoyat kodeksida ularning jazo turlariga nisbatan yengillashtirilgan insonparvar yondashuvning qo'llanilishi voyaga yetmaganlarni himoya qilish va ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishga qaratilgan siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

¹² https://drive.google.com/file/d/1f3MCJF3DdFLIeRoRJzU7mUQIAZCdTh4_/view



Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilari o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda oilaning, ta'lim muassasalarining, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Profilaktika ishlarining umumiy (jamoaviy) va yakka tartibdagi shakllarini takomillashtirish, xavf guruhi bo'lgan o'quvchilarni erta aniqlash, psixologik-pedagogik rehabilitatsiya choralari kuchaytirish huquqbuzarliklarning kamayishiga real ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, maktab o'quvchilari tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar muammosini chuqur o'rganish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, voyaga yetmaganlar xavfsizligini ta'minlash, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish hamda davlatning yoshlar siyosati samaradorligini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
4. “Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi Qonun. 2010-yil 29-sentabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 360-son qarori “Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida”. – 2000-yil 21-sentabr.
6. Karimov A. *Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi va uning oldini olishning ijtimoiy-huquqiy asoslari*. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
7. Jo'rayev N. *Huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Yuridik adabiyot, 2021.
8. Qodirova G. *Yoshlar psixologiyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
9. Turdiboyeva G. *The Factors Influencing the Spread of Delinquency and Crime Among Minors in Uzbekistan*. – 2022.



10. Mamirov U. Z. *Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikning o'ziga xos jihatlari*. – 2021.
11. Kalandarov J. D. *Voyaga yetmaganlar huquqbuzarlighi tushunchasi va ijtimoiy xavfliligi*. – Zenodo, 2023.
12. V.D. Malikov. *Kriminologiya: voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bo'yicha ilmiy yondashuvlar*. – Moskva, 2018.
13. Shukurova G. A., Nishonova D. A. *Voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan ozod qilish institutining takomillashtirilishi*. – 2022.
14. Suyarova F. S. *Yangi O'zbekistonda voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini huquqiy himoya qilish*. – 2023.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid qarorlari (2020–2024-yillar).
16. Maktab psixologlari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: XTV, 2022.
17. Azizov D. A., Izzatillaev U. *Prevention of crime among minors: global experience and national solutions*. – 2024.